



International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies

International Conference of Economics, Finance and Accounting Studies is a double-blind peer-reviewed, open-access journal published to reach excellence on the scope. It considers scholarly, research-based articles on all aspects of economics, finance and accounting. As an international congress aimed at facilitating the global exchange of education theory, contributions from different educational systems and cultures are encouraged. It aims to provide a forum for all researchers, educators, educational policy-makers and planners to exchange invaluable ideas and resources.

MAKTAB VA MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINING TAMOYILLARI VA XALQARO QARASHLAR

Muxtorov Ozod Asliddin o'g'li
Navoiy viloyati Favqulodda vaziyatlar
boshqarmasi Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i
ozodbekmuxtorov515@gmail.com

G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich
Ma'mun universiteti
"Buxgalteriya hisobi" kafedrası o'qituvchisi
goyibnazarov_muxammad@mamunedu.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ichki audit faoliyatining asosiy tamoyillari hamda ular yuzasidan shakllangan xalqaro qarashlar tahlil qilindi. Tadqiqotda davlat sektori ichki auditiga oid milliy normativ-huquqiy hujjatlar, budjet tashkilotlari va ta'lim sohasi bo'yicha ilmiy manbalar, shuningdek Saudiya Arabistoni, Shri-Lanka, Sudan, Kosovo, Ruminiya, Shvetsiya, Indoneziya va Vetnam tajribalarini yorituvchi xorijiy tadqiqotlar umumlashtirildi. Ichki audit faoliyatining mustaqillik, xolislik, kasbiy kompetensiya, dalillarga tayanganlik, javobgarlik va shaffoflik, riskka yo'naltirilganlik, etik me'yorlarga rioya qilish hamda boshqaruv bilan muvozanatli munosabatni saqlash kabi tamoyillari maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatiga mos ravishda talqin qilindi.

Kalit so'zlar: ichki audit, tamoyillar, xalqaro qarashlar, maktab, maktabgacha ta'lim, mustaqillik, xolislik, kasbiy kompetensiya, riskka yo'naltirilgan audit

Kirish

Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari davlat sektori tarkibidagi ijtimoiy yo'naltirilgan subyektlar bo'lib, ularning moliyaviy va tashkiliy faoliyati ko'plab jarayonlardan tarkib topadi. Ish haqi, oziqlantirish, kommunal xarajatlar, kichik va tez eskiruvchi inventar, asosiy vositalar, xizmatlar xaridi, xavfsizlik, ta'mirlash, ota-onalar to'lovlari bilan bog'liq hisob-kitoblar va boshqa operatsiyalar bu tizimdagi ichki audit uchun keng nazorat maydonini shakllantiradi. Shu sabab ichki audit mazkur muassasalarda faqat tekshiruv funksiyasi bilan cheklanmaydi; u ichki nazorat tizimining qay darajada ishlayotganini, resurslar qanday boshqarilayotganini va risklar qayerda to'planayotganini aniqlovchi mustaqil baholash mexanizmi sifatida qaraladi.

Ichki auditning samaradorligi ko'p jihatdan uning qaysi tamoyillar asosida tashkil etilganiga bog'liq. Xalqaro tajribada ichki audit faoliyatining mustaqillik, xolislik, kasbiy mahorat, dalillarga tayanganlik, rahbariyat bilan tegishli masofani saqlash, audit qo'mitasi bilan aloqadorlik, shaffoflik, javobgarlik va etik me'yorlarga sodiqlik kabi tamoyillari eng ko'p muhokama qilingan masalalardan sanaladi. Saudiya Arabistoni bo'yicha tadqiqotlarda ichki audit samaradorligiga top management support, organisational culture va independence kuchli ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan; Shri-Lanka tajribasida esa hisobot sifati uchun independence, accountability and transparency markaziy omillar sifatida ajralgan. Sudan bo'yicha tadqiqot ichki audit kuchini objectivity, competence va work performance bilan bog'laydi.

Ichki audit tamoyillari bo'yicha ilmiy qarashlar davlat sektori, budjet tashkilotlari va ta'lim sohasi kesimida bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Z.U.Khamidova (2021) budjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat faoliyatini takomillashtirish masalasini yoritarkan, ichki auditning mustaqil baholovchi tabiatini alohida ta'kidlaydi va nazorat bilan auditni bir-biridan ajratib ko'rsatadi. Bu yondashuv maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ham dolzarb, chunki bu yerda auditning mustaqilligi saqlanmasa, u kundalik hisob yuritish amaliyotiga singib ketib, xolis baholash kuchsizlashadi.

M.V.Gracheva (2019) ichki nazoratni tashkilotning barcha bo'g'inlariga kirib boradigan jarayon, ichki auditni esa aynan shu jarayonni mustaqil baholaydigan alohida institut sifatida izohlaydi. Muallif shuningdek davlat boshqaruvi tizimida markazlashgan va markazlashmagan audit modellari mavjudligini ko'rsatadi. Bu fikr ichki audit tamoyillaridan biri sifatida institutsional aniqlikni alohida ko'rsatadi: ichki auditning maqomi, hisobotlilik zanjiri va vakolati noaniq bo'lsa, boshqa tamoyillar amalda to'liq namoyon bo'lmaydi.

T.B.Turishcheva (2022) avtonom muassasalarda ichki nazorat nazariyasi va metodologiyasi bo'yicha tadqiqotida nazorat muhiti, risklarni baholash, nazorat tadbirlari, axborot almashinuvi va monitoring kabi elementlarni tizimli ravishda ko'rsatadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, ichki audit tamoyillarining muhim qatlami sifatida tizimlilik va riskka yo'naltirilganlik ajralib chiqadi. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun bu degani, ichki audit alohida operatsiyalarni tekshirish bilangina cheklanmay, nazorat tizimining umumiy ishlashini ko'ra olishi kerak.

A.S.Almahuzi (2020) Saudiya Arabistoni davlat sektorida ichki audit samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib, tashqi omillar sifatida yuqori rahbariyat qo'llovi, tashkiliy madaniyat va mustaqillikni, ichki omillar sifatida auditorlar kompetensiyasi, ITdan foydalanish, motivatsiya va jamoa hajmini ko'rsatadi. Muallifning ushbu xulosalari ichki audit tamoyillarining amaliy ko'rinishini ochib beradi: mustaqillik qog'ozdagi prinsip bo'lib qolmasdan, kadr, resurs va tashkilot madaniyati bilan mustahkamlanishi kerak.

Shri-Lanka tajribasi ichki audit hisobotlari sifatiga alohida e'tibor qaratadi. V.Anojan (2022) tadqiqotida hisobdorlik va shaffoflik, ichki auditorning kompetensiyalari, audit dalillari, ichki auditorning mustaqilligi va samaradorlik auditi ichki audit hisobotining samaradorligiga sezilarli ta'sir etgani ko'rsatiladi. Bu qarash maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun juda muhim, chunki ichki audit hisobotlari faqat kamchiliklar ro'yxati emas, dalilga tayangan va rahbariyat qarorlariga ta'sir qiladigan tahliliy hujjat bo'lishi lozim.

Sudan tajribasida O.A.Obeid (2007) ichki auditning kuchi xolislik, kompetensiya, ish samaradorligi va ichki nazorat monitoringi orqali namoyon bo'lishini ko'rsatadi. Ayniqsa, audit qo'mitasining ichki audit rahbarini tayinlash va lavozimdan olishdagi ishtiroki, auditorlarning axborotga to'liq kirishi va ularning boshqaruvdan nisbatan mustaqil hisobot berishi objectivityni mustahkamlovchi asosiy omillar sifatida talqin qilinadi. Bu maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari uchun ichki audit tamoyillaridan biri sifatida tashkiliy himoyalanganlikni ajratib ko'rsatadi.

Indoneziya bo'yicha tadqiqot ichki auditning etik qirrasini yoritadi. I.J.Humantito (2016) ichki auditorning axborotchi sifatidagi o'rnini tahlil qilib, ichki kanallar orqali axborot berish odatiy audit faoliyatining bir qismi sifatida qaralishini, tashqi axborot berish esa ichki yo'llar samara bermaganida ko'rib chiqilishini qayd etadi. Bu yondashuv ichki audit tamoyillari qatoriga etik

mas'uliyat, dalillarning sifatiga talabchanlik va zararli amaliyotni to'xtatishga qaratilgan motivatsiyani ham qo'shadi.

Shu tariqa, o'rganilgan manbalar ichki audit faoliyatining tamoyillarini quyidagicha umumlashtirishga asos beradi: mustaqillik, xolislik, kasbiy kompetensiya, dalillarga tayanganlik, javobgarlik va shaffoflik, riskka yo'naltirilganlik, etik me'yorlarga rioya qilish, audit qo'mitasi yoki yuqori nazorat bo'g'ini bilan samarali aloqadorlik hamda boshqaruvdan zarur masofani saqlagan holda u bilan konstruktiv ishlash. Aynan shu tamoyillar keyingi tahlil bo'limida tizimlashtiriladi.

Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ichki audit faoliyatining tamoyillari amalda ikki qatlamda namoyon bo'ladi. Birinchi qatlam umumiy kasbiy tamoyillar bo'lib, ular ichki auditning barcha sohalar uchun xos: mustaqillik, xolislik, kompetensiya, dalillarga tayanganlik, shaffoflik va etik me'yorlarga rioya qilish. Ikkinchi qatlam esa ta'lim muassasalar uchun xos amaliy talqinlardan iborat bo'lib, bu yerda tamoyillar oziqlantirish, inventar, xizmatlar xaridi, ish haqi, ota-onalar to'lovlari, kundalik sarf va ichki nazorat tizimi bilan bog'langan holda ko'rinadi. Shu sabab ichki auditning tamoyillari quruq deklaratsiya bo'lib qolmasdan, muassasa faoliyatining alohida segmentlarida qanday ishlashini ko'rsatish zarur.

Jadval 1. Ichki audit faoliyatining asosiy tamoyillari va ularning xalqaro talqini

Tamoyil	Mazmuni	Xalqaro qarashlarda aks etishi	Maktab va MTT uchun talqini
Mustaqillik	Auditor bahoni aralashsuz beradi	Saudiya va Sudan tajribasida hisobotlilik darajasi va audit qo'mitasi bilan bog'liq holda talqin qilingan	Auditor kundalik ijrochi operatsiyalarga qo'shilib ketmasligi kerak
Xolislik	Tekshiruv shaxsiy manfaatlarsiz olib boriladi	Sudan tadqiqotida objectivity ichki audit kuchining asosiy omili sifatida ko'rsatilgan	Direktor, buxgalter yoki ta'minotchi manfaatidan holi baholash zarur
Kasbiy kompetensiya	Bilim, tajriba va trening darajasi	Saudiya va Shri-Lanka tajribasida kompetensiya auditi samaradorligining tayanchi sifatida ko'rilgan	Auditor ta'lim xarajatlari, oziqlantirish va inventar hisobi xususiyatlarini bilishi kerak
Dalillarga tayanganlik	Xulosalar hujjat va dalil bilan asoslanadi	Shri-Lanka va Indoneziya manbalarida audit dalillari alohida urg'u bilan tilga olingan	Audit hisobotlari me'yor, hujjat va real mavjudlikni solishtirishi kerak
Javobgarlik va shaffoflik	Audit hisoboti aniq va tushunarli bo'ladi	Shri-Lanka tajribasida hisobdorlik va shaffoflik markaziy omillardan biri	Hisobotlarda sabab, ta'sir va tavsiyalar aniq ko'rsatilishi lozim
Riskka yo'naltirilganlik	Audit resursi xavfli zonalarga qaratiladi	Xalqaro davlat sektori amaliyotida riskga asoslangan yondashuv ustuvor	Oziqlantirish, AKT, xizmatlar va ombor yo'nalishlari ustuvor saralanadi
Etik me'yorlarga rioya qilish	Noqonuniy holatlarni yashirmaslik va professional burchga sodiqlik	Indoneziya tadqiqotida axborot bilan bog'liq holda ochilgan	Ichki audit xodimi sezgir ma'lumot bo'yicha ichki kanal orqali signal bera olishi kerak
Boshqaruv bilan muvozanatli aloqa	Rahbariyat bilan ishlaydi, lekin unga tobe bo'lib qolmaydi	Saudiya tadqiqotida boshqaruvni qo'llab-quvvatlash zarur, biroq haddan tashqari yaqinlik mustaqillikka putur yetkazishi qayd etilgan	Rahbariyat audit tavsiyalarini qo'llab-quvvatlashi, ammo audit ish rejasini boshqarmasligi kerak

Jadval ichki audit tamoyillari xalqaro adabiyotlarda alohida-alohida ko'rsatilsa-da, ular amalda bir-biri bilan chambarchas bog'liq ekanini ko'rsatadi. Masalan, mustaqillik bo'lmasa, xolislik susayadi; kompetensiya yetarli bo'lmasa, dalillarga tayanganlik ham formal tus oladi; javobgarlik va shaffoflik bo'lmasa, audit hisobotlari boshqaruv uchun qiymatini yo'qotadi. Saudiya tajribasi rahbariyat qo'llovi bilan mustaqillik o'rtasidagi nozik muvozanatni ochib beradi: rahbariyat auditni moddiy va tashkiliy jihatdan qo'llab-quvvatlashi zarur, biroq auditning kundalik ishiga aralashuvi uning asosiy tamoyillariga putur yetkazadi. Sudan bo'yicha tadqiqot esa objectivity va reporting level auditor mavqei uchun qanchalik muhimligini ko'rsatadi. Shri-Lanka tajribasida esa dalil, transparency va accountability ichki audit hisobotining kuchini belgilovchi markaziy tamoyillar sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ichki audit faqat qonuniy tekshiruv emas, balki dalillarga asoslangan, tushunarli va amaliy tavsiyalarga ega baholash bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

Jadval 2. Ichki audit tamoyillarining maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida amaliy ko'rinishlari

Tamoyil	Maktabdagi amaliy ko'rinish	Maktabgacha ta'limdagi amaliy ko'rinish	Audit uchun ustuvor vazifa
Mustaqillik	Auditor AKT, servis yoki jihoz xaridini o'zi tashkil etuvchi xodimdan mustaqil bo'ladi	Auditor oziqlantirish va ombor harakatini yurituvchi xodimlardan mustaqil bo'ladi	Hisobotlilik zanjirini yuqori bo'g'inga ulash
Xolislik	Xizmat xaridlarida kontragent tanlashga oid xulosalar manfaatlarsiz beriladi	Oziq-ovqat sarfi va me'yoriy tafovutlari xolis baholanadi	Tekshiruvda manfaatlar to'qnashuvini cheklash
Kompetensiya	Auditor AKT, inventar va xizmat xaridlari bo'yicha yetarli bilimga ega bo'ladi	Auditor oziqlantirish, me'yoriy sarf va ombor hisobi bo'yicha tayyorgarlikka ega bo'ladi	Tarmoq bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish
Dalillarga tayanganlik	Shartnoma, qabul qilish dalolatnomasi va real foydalanish taqqoslanadi	Menu, ombor chiqimi, qabul hujjati va amaliy sarf solishtiriladi	Hujjat va real holatni qiyosiy tekshirish
Javobgarlik va shaffoflik	Audit hisobotida aniqlangan muammo, sababi va tavsiya aniq yoziladi	Hisobotda me'yoriy og'ish, moddiy ta'sir va mas'ul bo'g'in ko'rsatiladi	Hisobot formatini standartlashtirish
Riskka yo'naltirilganlik	AKT, xavfsizlik, yirik xizmatlar va inventar ustuvor ko'riladi	Oziqlantirish, kundalik sarf, yumshoq inventar va ombor ustuvor ko'riladi	Yillik reja xavf og'irligiga qarab tuziladi
Etik me'yorlar	Noto'g'ri xarid, yashirilgan kamchilik yoki soxta qabul bo'yicha ichki signal beriladi	Oziq-ovqat va kundalik sarfdagi yashirin holatlar bo'yicha signal berish kanali ishlaydi	Ichki axborot berish mexanizmini yo'lga qo'yish
Muvo-zanatli aloqa	Rahbariyat bilan hamkorlik mavjud, lekin audit xulosasi mustaqil qoladi	Muassasa rahbari audit tavsiyalarini qabul qiladi, ammo mazmuniga ta'sir qilmaydi	Tavsiyalar ijrosi ustidan follow-up yuritish

Ikkinchi jadval ichki audit tamoyillarini maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarining kundalik

faoliyatiga tatbiq etilgan holda ko'rsatadi. Bu yerda eng muhim xulosa shuki, tamoyillarning o'zi umumiy bo'lsa ham, ularning amaliy ko'rinishi muassasa turiga qarab farqlanadi. Maktabda mustaqillik ko'proq AKT, xavfsizlik xizmati, inventar va servis shartnomalari bilan bog'liq segmentlarda seziladi. Maktabgacha ta'lim muassasasida esa ayni tamoyil oziqlantirish, ombor va me'yoriy sarf jarayonlarida sinovdan o'tadi. Kompetensiya ham shu tarzda farqlanadi: maktab auditida texnik va xizmat xarajatlarini tushunish muhim bo'lsa, maktabgacha tizim auditida oziq-ovqat, me'yor va kundalik sarfning hisobini anglash zarur. Jadval ichki audit tamoyillari amaliyotda abstrakt tushuncha bo'lib qolmasdan, konkret audit vazifalariga aylanishi kerakligini ko'rsatadi. Ayniqsa, riskka yo'naltirilganlik va etik me'yorlar bo'yicha ko'rinishlar zamonaviy ichki auditning asosiy qirrasini ochadi: ichki audit faqat hujjat tekshiruvchi organ emas, balki erta ogohlantiruvchi va boshqaruvni xavfli nuqtalar haqida xabardor qiluvchi institutsional mexanizm bo'lishi lozim.

O'rganilgan manbalar ichki audit tamoyillari bo'yicha ikki muhim ilmiy xulosaga olib keladi. Birinchidan, ichki auditning tamoyillari qanchalik to'g'ri belgilansa, uning funksional yo'nalishlari shunchalik aniq ishlaydi. Ikkinchidan, tamoyillarni deklarativ shaklda sanab o'tish yetarli emas, ularni muassasa faoliyatiga mos tarzda amaliy mexanizmga aylantirish zarur. Maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida aynan shu masala eng muhim hisoblanadi, chunki bu yerda ichki audit bir vaqtning o'zida moliyaviy nazorat, ichki nazorat monitoringi, risklarni saralash va boshqaruvga tavsiya berish vazifalarini bajaradi.

Xalqaro qarashlar shuni ham ko'rsatadiki, mustaqillik va rahbariyat qo'llovi bir-biriga zid emas, aksincha, to'g'ri muvozanat topilganda ichki audit sifati oshadi. Rahbariyat auditni resurs va vakolat bilan ta'minlashi kerak, biroq audit xulosasiga ta'sir o'tkazmasligi lozim. Ta'lim muassasalari uchun bu ayniqsa dolzarb, chunki ko'plab operatsiyalar ichki bo'linmalar doirasida amalga oshiriladi va auditor shu bo'linmalardan tashkilot ichida mustaqil turishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. Вазирлик ва идораларнинг ички аудит хизмати тўғрисидаги намунавий низомни тасдиқлаш ҳақида, 2022 йил 1 август, 416-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг буйруғи. Ички аудит миллий стандартларини тасдиқлаш ҳақида, 2022 йил 24 октябрь, рўйхат рақами 3394.
3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг буйруғи. Ички аудит тадбирларини ўтказиш қўлланмасини тасдиқлаш тўғрисида, 2022 йил 27 декабрь, рўйхат рақами 3406.
4. Almahuzi A.S. Factors impacting the effectiveness of internal audit in the Saudi Arabian public sector. Victoria University, 2020. - 314 p.
5. Alzeban A., Sawan N. The role of internal audit function in the public sector context in Saudi Arabia // African Journal of Business Management. 2013. Vol. 7(6). - P. 443-454.
6. Anojan V. Factors affecting internal audit reporting on public sector in Sri Lanka // Journal of Accounting and Business Education. 2022. Vol. 6(2). - P. 22-33.
7. Humantito I.J. Whistle-Blowing decisions in responding to organisational corruption in government internal audit units in Indonesia. University of Warwick, 2016. - 386 p.
8. Obeid O.A. Evaluating the strength of the Internal Audit Function: The Case of Sudanese Banks. Liverpool John Moores University, 2007. - 392 p.
9. Башарова Ольга Геннадьевна. Учет расходов и анализ эффективности деятельности общеобразовательных учреждений: автореф. дисс. на соис. уч. степ. к.э.н. Ульяновск, 2010. - 21 с.
10. Грачева М.В. Внутренний контроль и аудит подведомственной сети в органах

государственного управления // Вестн. Моск. ун-та. Сер. 21. Управление (государство и общество). 2019. № 3. - С. 39-57.

11. Турищева Татьяна Борисовна. Теория и методология внутреннего контроля в автономных учреждениях: автореф. дисс. на соис. уч. степ. д.э.н. Москва, 2022. - 46 с.
12. Хамидова Зарифа Урол қизи. Бюджет ташкилотларида ички аудит ва молиявий назорат хизмати фаолиятини такомиллаштириш: иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. - 59 б.